



INNOVATIVE  
WORLD

ISSN: 3030-3079

# ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

SHARQ AKADEMIK VA KO'P TARMOQLI  
TADQIQOTLAR JURNALI

Scientific Journal

2026/6



[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)

+998 33 5668868



# ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Volume 4, Issue 6  
2026

Journal has been listed in different indexings



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

The official website of the journal:  
[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)

Uzbekistan-2026



## KREATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARDA MA'NAVY DUNYOQARASHNI KENGAYTIRISH OMILLARI VA PRINSIPLARI

Shomurodov Jamshid Olimboy o'g'li

Oriental universiteti Uzluksiz ta'lim pedagogikasi kafedrası dotsenti,  
p.f.f.d., PhD.

Ibrohimova Zarnigor Ilxomovna

Oriental universiteti Pedagogika yo'nalishi  
1-bosqich magistranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kreativ yondashuv asosida o'quvchilarda ma'naviy dunyoqarashni kengaytirishning pedagogik omillari va prinsiplari tahlil qilingan bo'lib, bunda ma'naviy tarbiya jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va ijodiy faoliyatning ahamiyati asoslab berilgan. Ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy-pedagogik omillar hamda samaradorlikni ta'minlovchi prinsiplar tavsiflangan.

**Tayanch so'zlar:** kreativ yondashuv, ma'naviy dunyoqarash, ma'naviy tarbiya, kreativ fikrlash, pedagogik omillar, pedagogik prinsiplar, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, shaxs rivojlanishi, ma'naviy-axloqiy tarbiya.

Shaxsning ijodiy jihatdan o'z-o'zini namoyon qilishi, uning betakrorligi, chuqur insonparvarlik ahamiyatiga ega. U inson hayotining mazmun-mohiyati, uning ichki quvvatlarining namoyon bo'lishi bilan bog'liqdir. Faylasuflarning ta'kidlashicha, insonning hayoti uning faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Inson o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga faoliyat tufayli erishadi. Kreativ, ya'ni ijodiy faoliyat keng ko'lamlı tushuncha bo'lib, shaxs bilan bir qatorda jamiyat taraqqiyotini ham ta'minlaydi. Insonning ijodiy, yaratuvchilik faoliyati uning kundalik hayotida namoyon bo'ladi. Jamiyat hayotida ijod ilm-fan va san'atda yangi topilmalar, ixtirolarning vujudga kelishini ta'minlaydi. Buning natijasida yangi ijtimoiy dasturlar vujudga keladi.

Ijodiy faoliyat yangi narsalarni iste'molga kiritish, vujudga kelgan ziddiyatli muammolarning yechimlarini topish, to'qnashuvli vaziyatlarni bartaraf qilish, mavjud xulq-atvor qoliplaridan voz kechish, tafakkur va idrok etish, o'z-o'zini o'zgartirish, takomillashtirishga tayyor bo'lishni taqozo qiladi. Kreativ faoliyat bu dunyoga nimanidir olib kirish demak. Uning asosiy me'yori shaxs tomonidan yaratilgan g'arayibotlarning be'takrorligidir. U o'quvchining o'ziga xosligi va kreativ qobiliyatlarini namoyon qiladi. O'quvchilarni mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni murakkab, mujassamlashgan pedagogik hodisadir. Kreativ faoliyat ham intellektual, ham individual yo'nalishlarga ega[2].

Kreativ yondashuv asosida o'quvchilarda ma'naviy dunyoqarashni kengaytirish ta'lim-tarbiya jarayonining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga imkon beradi. Bu yondashuv o'quvchini faqat bilim oluvchi subyekt

sifatida emas, balki ongli tanlov qiluvchi, ijtimoiy mas'uliyatni his etuvchi va ma'naviy qadriyatlarga tayangan holda harakat qiluvchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada tarbiya jarayoni tashqi ta'sirlar majmuasidan ichki e'tiqod va barqaror hayotiy pozitsiyaga asoslangan tizimga aylanadi.

Birinchiidan, kreativ yondashuv o'quvchilarda ma'naviy ong va qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantiradi. O'quvchi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tayyor qoidalar sifatida emas, balki hayotiy tajriba, muammoli vaziyatlar va shaxsiy xulosalar orqali anglaydi. Bu holat ma'naviy bilimlarning yuzaki emas, balki chuqur va barqaror o'zlashtirilishiga olib keladi.

Ikkinchiidan, mazkur yondashuv o'quvchilarda ongli hayotiy pozitsiya va axloqiy tanlov qobiliyatini rivojlantiradi. Kreativ topshiriqlar va axloqiy dilemmalar orqali o'quvchi turli vaziyatlarda qaror qabul qilishni, o'z tanlovini asoslashni va uning oqibatlarini anglashni o'rganadi. Natijada u jamiyatda sodir bo'layotgan hodisalarga befarq bo'lmay, ularga mas'uliyat bilan yondashadi.

Uchinchiidan, kreativ yondashuv tanqidiy va ijodiy tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi. O'quvchilar muammolarni bir yoqlama emas, balki turli nuqtai nazardan tahlil qilishga o'rganadi, o'z fikrini dalillashga harakat qiladi. Bu esa ma'naviy dunyoqarashning kengayishi bilan bir qatorda, mustaqil fikrlovchi shaxs shakllanishiga olib keladi.

To'rtinchiidan, ushbu yondashuv o'quvchilarda emotsional-intellektual rivojlanishni ta'minlaydi. O'z his-tuyg'ularini anglash, boshqalarning holatini tushunish, empatiya ko'rsatish va ijtimoiy sezgirlikni namoyon etish ma'naviy dunyoqarashning muhim tarkibiy qismiga aylanadi. Bu esa o'quvchilarning muloqot madaniyatini va jamoadagi munosabatlarini ijobiy tomonga o'zgartiradi.

Kreativ yondashuv natijasida ta'lim muhitida ijobiy pedagogik-psixologik iqlim shakllanadi. O'quvchilar o'z fikrini erkin ifodalashga, xatodan qo'rqmasdan ijodiy tashabbus ko'rsatishga odatlanadi. Bunday muhit ma'naviy tarbiyaning majburiy emas, balki tabiiy va qiziqarli jarayon sifatida kechishini ta'minlaydi. Kreativ yondashuv asosida o'quvchilarda ma'naviy dunyoqarashni kengaytirish quyidagi muhim natijalarga erishish imkonini beradi: ma'naviy ongning chuqurlashuvi, ongli hayotiy pozitsiyaning shakllanishi, axloqiy tanlov qobiliyatining rivojlanishi, tanqidiy va ijodiy tafakkurning faollashuvi, emotsional-intellektual yetuklik, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik faolligining oshishi hamda barqaror ma'naviy e'tiqodga ega shaxsning shakllanishi. Aynan shu natijalar zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy tarbiyaviy maqsadlarning ro'yobga chiqishini ta'minlaydi[1].

Kreativ yondashuv asosida o'quvchilarda ma'naviy dunyoqarashni kengaytirish murakkab va ko'p qirrali pedagogik jarayon bo'lib, u bir vaqtning o'zida ijtimoiy muhit, ta'lim tizimi va o'quvchi shaxsining ichki imkoniyatlariga tayangan holda amalga oshiriladi. Bu jarayonning muvaffaqiyati muayyan omillarning mavjudligi va ular asosida amal qilinadigan pedagogik prinsplarga bevosita bog'liqdir. Agar omillar yetarli darajada ta'minlanmasa yoki prinsiplar

e'tibordan chetda qolsa, ma'naviy tarbiya yuzaki va barqaror bo'lmagan natijalar bilan cheklanib qoladi. Quyida kreativ yondashuv asosida o'quvchilarda ma'naviy dunyoqarashni kengaytirishning **asosiy omillarini keltirib o'tamiz:**

- ijtimoiy-pedagogik omillar (globallashuv, raqamli makon, ijtimoiy tarmoqlar);
- Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ta'lim mazmuniga integratsiyasi (mazmunning tarbiyaviy yo'naltirilganligi);
- Oila, maktab, jamiyat hamkorligi va tarbiyaviy izchillik (qadriyatlar uyg'unligi, uzviylik);
- Ta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy va pedagogik-psixologik muhiti (ishonch, hurmat, adolat, xavfsiz muhit);
- O'qituvchi shaxsining ma'naviy-namunaviy roli va pedagogik mahorati (fasilitatsiya, tarbiyaviy ta'sir madaniyati);
- Ta'lim jarayonining pedagogik dizayni: mazmun–metod–shakl–vositalarning kreativ yo'naltirilganligi (muammoli ta'lim, loyiha, munozara, ijodiy topshiriqlar);
- O'quvchining yosh va individual-psixologik xususiyatlari (bilish jarayonlari, emotsional sezgirlik, tajriba);
- O'quvchining motivatsiyasi, qiziqishlari va ehtiyojlari (ichki rag'bat, shaxsiy ma'no);
- O'quvchining emotsional-intellektual va refleksiv imkoniyatlari (empatiya, o'zini anglash, o'z-o'zini baholash);
- Nazorat baholash va teskari aloqa tizimi (kuzatuv, portfel, rubrika, refleksiya orqali barqarorlashtirish);

Avvalo, ijtimoiy-pedagogik omillar ma'naviy dunyoqarashni kengaytirishning muhim tashqi tayanchi hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda axborot oqimining kuchayishi, ijtimoiy tarmoqlar, turli madaniyat va qarashlarning o'zaro ta'siri o'quvchilarning fikrlashiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda o'quvchi tayyor qarashlarni qabul qiluvchi emas, balki axborotni tahlil qila oladigan, ma'naviy mezonlar asosida baholay oladigan shaxs bo'lishi zarur. Kreativ yondashuv aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib, o'quvchini muammoli vaziyatlarga duch keltiradi, bahs-munozaraga undaydi va mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatadi. Natijada o'quvchi jamiyatdagi murakkab hodisalarga befarq bo'lmay, ularga ongli munosabat bildiradi.

Ushbu omillar asosida quyidagi prinsplarga amal qilish ma'naviy tarbiya jarayonining sifatini belgilaydi.

- ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirishga yo'naltirilganlik prinsipi;
- shaxsga yo'naltirilganlik prinsipi;
- faoliyatga asoslanganlik prinsipi;
- kreativlik va tanlov erkinligi prinsipi;
- muammolilik va axloqiy tanlov prinsipi;
- hamkorlik va muloqot prinsipi;
- milliylik va umuminsoniylik uyg'unligi prinsipi;

- uzluksizlik va tizimlilik prinsipi;
- refleksiya va o'z-o'zini baholash prinsipi;
- ijobiy pedagogik-psixologik muhitni ta'minlash prinsipi.

Kreativ yondashuv asosida o'quvchilarda ma'naviy dunyoqarashni kengaytirish jarayoni faqat pedagogik texnologiyalar yoki metodlar bilan cheklanib qolmaydi. Ushbu jarayonning samaradorligi ko'p jihatdan ijtimoiy-pedagogik omillar majmuasiga bog'liq bo'lib, ular ta'lim-tarbiya jarayonining tashqi va ichki shart-sharoitlarini belgilaydi. Ijtimoiy-pedagogik omillar o'quvchi shaxsining ma'naviy rivojiga jamiyat, muhit va pedagogik tizimning o'zaro ta'siri orqali ta'sir ko'rsatadi[4].

Muhim ijtimoiy-pedagogik omillardan biri – jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy ehtiyojlarning o'zgarishidir. Zamonaviy jamiyatda globallashtirish, axborot oqimining keskin kuchayishi, madaniyatlararo aloqalarning kengayishi o'quvchilarning dunyoqarashiga bevosita ta'sir qilmoqda. Bunday sharoitda ma'naviy tarbiya an'anaviy, faqat tayyor qadriyatlarni singdirishga asoslangan yondashuv bilan cheklanib qolsa, u zamon talablariga javob bera olmaydi. Kreativ yondashuv esa o'quvchini ijtimoiy voqelikni mustaqil tahlil qilishga, turli qarashlarni solishtirishga va ongli xulosa chiqarishga o'rgatadi[3]. Shu jihatdan jamiyatning rivojlanish darajasi va ma'naviy ehtiyojlari kreativ yondashuvni zarur ijtimoiy-pedagogik omil sifatida yuzaga chiqaradi.

Ikkinchi muhim omil – milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ta'lim mazmuniga integratsiyasidir. O'quvchilarda ma'naviy dunyoqarashni kengaytirish uchun ta'lim mazmuni jamiyatda e'tirof etilgan axloqiy me'yorlar, madaniy meros va umuminsoniy g'oyalar bilan boyitilgan bo'lishi lozim. Kreativ yondashuv bu qadriyatlarni tayyor shaklda emas, balki muammoli vaziyatlar, hayotiy misollar va ijodiy topshiriqlar orqali o'zlashtirish imkonini beradi. Natijada o'quvchi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shunchaki bilib qolmaydi, balki ularni shaxsiy hayotiy pozitsiyasi bilan bog'laydi.

Uchinchi ijtimoiy-pedagogik omil – ta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy muhitidir. Maktab yoki ta'lim muassasasida hukm suradigan umumiy muhit – o'zaro munosabatlar, qadriyatlarga munosabat, muloqot madaniyati – o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Agar ta'lim muassasasida ochiq fikrlash, ijodkorlik, hurmat va hamkorlik qadriyatlari ustuvor bo'lsa, o'quvchilar ham ushbu muhit ta'sirida ma'naviy jihatdan rivojlanadi. Kreativ yondashuv aynan shunday muhitni shakllantirishga xizmat qilib, o'quvchilarning tashabbuskorligi va ijtimoiy faolligini oshiradi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar ta'lim mazmunining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarda ma'naviy dunyoqarashni shakllantirish va kengaytirishda asosiy pedagogik manba vazifasini bajaradi. Ta'lim jarayoni faqat bilim va ko'nikmalarni egallash bilan cheklanib qolmasdan, shaxsning axloqiy pozitsiyasi, hayotiy qarashlari va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Aynan shu nuqtai nazardan milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ta'lim mazmuniga singdirilishi pedagogik jihatdan zarur hisoblanadi.

Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy tajribasi, madaniy merosi, urf-odatlarini, an'analari va ma'naviy qarashlari bilan bog'liq bo'lib, o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, vatanga sadoqat va madaniy xotirani shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim mazmunida milliy qadriyatlarning aks etishi o'quvchilarga o'z xalqining tarixi, madaniyati va ma'naviy merosiga hurmat bilan qarashni o'rgatadi. Bu jarayonda o'quvchi milliy qadriyatlarni tayyor qoidalar sifatida emas, balki o'z hayoti va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida anglaydi.

Kreativ yondashuv milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ta'lim mazmuniga singdirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Kreativ topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, munozaralar va ijodiy loyihalar orqali o'quvchi qadriyatlarni faol o'zlashtiradi. Masalan, tarixiy voqealarni axloqiy jihatdan baholash, adabiy asar qahramonlarining xatti-harakatlarini tahlil qilish yoki zamonaviy ijtimoiy muammolarni qadriyatlar asosida muhokama qilish o'quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Natijada qadriyatlar o'quvchi ongida abstrakt tushuncha emas, balki hayotiy mezon sifatida shakllanadi.

Kreativ yondashuv asosida o'quvchilarda ma'naviy dunyoqarashni kengaytirish ularning mustaqil fikrlashi, ijodiy salohiyati, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ongli munosabatini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maqsadlilik, tizimlilik, shaxsga yo'naltirilganlik va hamkorlik prinsiplari asosida tashkil etilgan tarbiyaviy jarayon hamda kreativ metod va texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, ijtimoiy faolligi va milliy o'zlikni anglash darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois kreativ yondashuv ma'naviy yetuk, ijodkor va faol shaxsni tarbiyalashning samarali pedagogik vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 296 b.
2. Ishmuhamedov R., Yo'ldoshev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2020. – 280 b.
3. Amabile T.M. Creativity in Context. – Boulder: Westview Press, 1996. – 336 p.
4. Khutorskoy A.V. Sovremennaya didaktika. – Sankt-Peterburg: Piter, 2017. – 720 s.